

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2019 yil yanvar oyida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Sanoat ishlab chiqarish

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi – 301,3 mlrd. so'm

Fizik hajm indeksi – 99,4 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari

Iste'mol tovarlari hajmi – 112,6 mlrd. so'm


O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'shish sur'ati – 101,0 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes

Sanoat mahsulotlarida kichik biznesning ulushi – 50,1 %

Iste'mol tovarlarida kichik biznesning ulushi – 77,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **(B-seksiya)**.


Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) **(C-seksiya)**.

2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 272,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,3 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 37,4 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 15,9 %, elektr uskunalari ishlab chiqarish 11,0 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 7,9 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) tarkibi



1-jadval

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar oyida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar oyida
Paxta chigiti, tonna		
10560		9596
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna		
4672		2472
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna		
4557,5		5280
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar, tonna		
10		-
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka), tonna		
-		14
Chakana savdo uchun qodoqlanmangan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip, tonna		
698		953

2018 yil
yanvar oyida

Ishlab chiqarilgan sanoat
mahsulotlari

2019 yil
yanvar oyida

Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar, ming dona

19



152

Chakana savdo uchun qadoqlanmagan yuzaki aktiv vositalar, yuvish va tozalovchi vositalari, tonna

100



120

Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona

60,3



62,1

Mashinada yoki qo'lda tuqilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna

175



138

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **(D-seksiya)**.

Joriy yilning yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,2 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 109,3 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. **(E-seksiya)**.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar oyida sanoatning **(E-seksiya)** mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizatsiya qilish 1,4 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,5 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar oyida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 301,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, fizik hajm indeksi 99,4 % ni tashkil etdi.


1-diagramma

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining xajmi, mlrd. so'm



2-diagramma

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarkibi, % da




Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shahri (46,7 %) va Do'stlik (15,3 %), Paxtakor (8,4 %), Zarbdor (6,0 %), Zafarobod (4,5 %), Arnasoy (4,3 %), Sh.Rashidov (3,9 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

3-diagramma

2019 yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning


o'ri, %da



4-diagramma

2019 yilning yanvar oyida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi,


mlrd. so'm



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) 2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 272,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,3 % ni tashkil etdi.

5-diagramma


Joriy yilning yanvar oyida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da




■ Yuqori texnologiyali ■ O'rta-yuqori texnologiyali ■ O'rta-quyi texnologiyali ■ Quyi-texnologiyali

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,1 mlrd. so'm (2018 yil yanvar oyida 1,4 mlrd. so'm), o'rta-yuqori texnologiyada 12,5 mlrd. so'm (10,9 mlrd. so'm), o'rta-quyi texnologiyada 15,8 mlrd. so'm (18,5 mlrd. so'm) quyi texnologiyali 70,6 mlrd. so'm (69,1 mlrd. so'm)lik mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 112,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 101,0 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 37,4 % ni tashkil etdi.




2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 64,1 % dan 2019 yilning yanvar oyida 67,8 % ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 225,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shahrida 813,1 ming so'mni, Do'stlik tumanida 724,8 ming so'mni, Paxtakor tumanida 352,5 ming so'mni, Arnasoy tumanida 289,1 ming so'mni tashkil etadi.

8-diagramma


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va istemol tovarlari, ming so'm

 - iste'mol tovarlari

 - sanoat mahsulotlari

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 fevral holatiga 38 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 78,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

9-diagramma

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd. so'mda




10-diagramma

Faoliyat yuritayotgan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni, birlik



O'tgan yilning shu davriga nisbatan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 13 taga ko'paygan




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 150,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 50,1 % ni tashkil etdi.


11-diagramma

Jami sanoatda kichik biznesning ulushi, foiz hisobida



12-diagramma

Hududlar miqyosida jami sanoat hajmida kichik biznes ulushi, %da




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 fevral holatiga 2368 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 855 tasi Jizzax shahrida, 515 tasi Sharof Rashidov, 206 tasi G'allaorol, 177 tasi Zomin, 105 tasi Forish, 90 tasi Zarbdor, 80 tasi Paxtakor, 80 tasi Baxmal, 75 tasi Do'stlik, 60 tasi Mirzacho'l, 52 tasi Zafarobod, 41 tasi Arnasoy, 32 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

13-diagramma



2019 yil yanvar oyida viloyatda 72 ta horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yurib kelmoqda, jumladan Jizzax shaharda 42 ta, Forish tumanida 6 ta, G'allaorol, Do'stlik, Zomin tumanlarida 4 tadan, Paxtakor tumanida 3 ta, Sharof Rashidov, Zarbdor, Zafarobod tumanlarida 2 tadan va Baxmal, Mirzacho'l, Yangiobod tumanlarida 1 tadan horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.